

**Tanbur cholg'usida maqom yo'llarini o'qitishning nazariy va
amaliy metodlari**

Buxoro davlat universiteti

“San’atshunoslik” fakulteti

Musiqqa ijrochiligi va madaniyat

*kafedrasi oqituvchisi **Bexruz Hamidovich Boltayev** va*

*talaba **Berdiboyev Zafar Baxtiyor o'g'li***

***Anotatsiya:** Buxoroda SHashmaqomni notaga olish ishlariga nozirlik qilayotgan taniqli olim Abdurauf Fitrat (1886-1938) Ota G'iyos qo'lidagi qo'lyozmaning tartib va xususiyatlarini Uspenskiyga tushuntirib beradi. Fitratdan olgan ma'lumotlarni qo'lyozma bilan solishtirib, V.M.Belyaevga bu haqda maktublar yo'llaydi. .*

***Kalit-so'zlar:** Shashmaqom, Parda, Lad, Usul, Abdurauf Fitrat, Uzzol, sho'ba, Saraxbor, shashmaqom, poema, roman.*

**Tanbur cholg'usida maqom yo'llarini o'qitishning nazariy va
amaliy metodlari**

V.A.Uspenskiy (1879-1949) O'zbek notasiga maqom manbai sifatida ilk bor murojaat qilgan olimlardan biridir. Buxoro Xalq sho'rolar jumhuriyatining buyurtmasiga binoan u SHashmaqomni notaga olish uchun 1923 yilda Buxoroga keladi va o'sha paytlari hayot bo'lgan SHashmaqom bilimdonlari Ota Jalol (1845-1928) va Ota G'iyos (1859-1927)lardan SHashmaqomni bevosita eshitib to'g'ridan-to'g'ri notaga olish boshlaydi. Dugoh maqomining Saqili Ashkullo qismini ustozlar hech eslay olmaydi. SHunda Ota G'iyos qo'lidagi Tanbur chizig'iga qarab, Saqili Ashkulloni chalib berganda hamma hayratga tushadi. Maqomlar butkul yozib olingan manbani ko'rgan rus olimi nihoyatda quvonib, bu nodir kitob haqida o'zining yaqin do'sti va maslakdoshi Moskva

Konservatoriyasining professori Viktor Mixaylovich Belyaev (1886-1968)ga maktub yo'llaydi va ajoyib topilma to'g'risidagi xushxabar mutaxassislar orasida tarqalib, qiziqish uyg'otadi.[25.22-24,41-45]

Buxoroda SHashmaqomni notaga olish ishlariga nozirlik qilayotgan taniqli olim Abdurauf Fitrat (1886-1938) Ota G'iyos qo'lidagi qo'lyozmaning tartib va xususiyatlarini Uspenskiyga tushuntirib beradi. Fitratdan olgan ma'lumotlarni qo'lyozma bilan solishtirib, V.M.Belyaevga bu haqda maktublar yo'llaydi. Tajribali olim mavjud ma'lumotlarni tartibga keltirib, hamkasbi musiqiy sharqshunoslik borasida qalam tebratib yurgan Oksfordlik olim Genri Djordj Farmer (1882-1965) tavsiyasi bilan "The Sackbut" jurnalida V.M.Belyaevning "Xorazmiy nota" ("Khorezmian notation") maqolasi e'lon qilinadi.

E.E.Romanovskaya (1890-1945) va I.Akbarov (1909-2002)lar Xorazmda atoqli maqom ustози Matyoqub Xarrot (1867-1939) talqinida Xorazm maqomlarining tanbur ijro variantini fonograf valiklariga yozib oladilar. Keyinchalik ana shu ovoz yozuvlarini Yelena Romanovskaya notalashtiradi va "Xorazm klassik musiqa"si nomi bilan nashrga tayyorlaydi¹. I.Akbarov esa ilmiy maqola va "Tanbur chizig'i"ning bir necha nusxalari asosida kuylarni zamonaviy notaga o'girishga harakat qiladi.

Isoq Rajabovning (1927-1982) "Maqomlar masalasiga doir" nomli ilmiy monografik asarida SHashmaqom majmuasi dastlab kasbiy (saroy) musiqasida keng o'rin tutganligi o'n ikki maqom tizimining tabiiy rivoji, uning parda-tuzuk, kuy-ohang, zarb-usul, avj-namud va boshqa shakliy tuzilish qonuniyatlari shu yaxlit tizimning tarkibiy qismlari ekanligi uzil-kesil ravishda o'z yechimini topadi. Tadqiqotda maqomot tizimining o'zga shakllari bo'lgan Xorazm maqomlari va Farg'ona-Toshkent yo'llariga oid qimmatli fikr-mulohazalar bildirilib, ularni SHashmaqom bilan o'zaro bog'lanish munosabatlari xususida ham malakali ko'rsatmalar bayon etilgan².

¹ Романовская Е.Е. Хоразмская классическая музыка. –Ташкент: 1939.

² Ражабов И. Мақомлар масаласига доир. –Тошкент: 1963.; Ўша муаллиф. Мақом асослари. –Тошкент: 1992. Шунингдек, ушбу муаллиф ёзган диссертация. Қаранг: Ражабов И. Мақомы. Автореф.докт.дисс. – Тошкент-Ереван: 1970.

I.Rajabovning “Maqomlar” deb nomlangan mukammal ilmiy asarida, “Maqomlar masalasiga doir” monografiyasidan o’rin olmagan yangi sahifalar mavjud. Xususan, maqom san’atining qadimiy kelib chiqish manbalari, O’rta asr olimlarining musiqaga doir risolalari tavsifiga keng o’rin berilib, maqomot tizimida qo’llanib kelinayotgan namud jadvali to’liq keltiriladi. I.Rajabovning “Maqomlar” nomli shoh asari tadqiqotimizda asosiy manbalardan biri bo’lib xizmat qildi.

Taniqli musiqashunos O.Ibrohimov tomonidan 2006 yilda chop qilingan “Fergano-Tashkentskie makomy” monografiyasida Farg’ona-Toshkent maqomlari haqida to’liq va batafsil ma’lumotlar berilgan. Bu asardan tadqiqot ishimizdagi Xorazm, Buxoro, Farg’ona-Toshkent maqomlarini tahlil qilishda nufuzli manba sifatida foydalandik.

SHuningdek, Xorazm maqomlariga doir nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan O.Matyoqubov keyinchalik “Og’zaki an’anadagi professional musiqa asoslariga kirish” va “Maqomot” kitoblarida bu mavzuga yanada chuqurroq kirib borgan bundan tashqari, uning bir qancha ilmiy maqolalari Xorazm maqomlarining parda va usul masalalariga bag’ishlangan.

Yuqorida nomlari zikr etilgan tadqiqotchilar o’z asarlarida SHO’ro tuzumi siyosati tufayli Xorazm “Tanbur chizig’i”ning yuzaga kelishida muhim rol o’ynagan Muhammad Rahimxon Feruz (1864-1910) va Xudoybergan Muhrkan (1822-1920), Muxammad Yokub Xarrot devon (1867-1939), Muxammad Rasul Mirzoboshi (1840-1922), Komil Devoniy (1885-1938) kabi musiqashunos va sozandayu xonandalarning o’rnini ko’rsatib bera olmaganlar. Xorazm “Tanbur chizig’i”ni Komil Xorazmiy (1825-1899)gagina bog’lab ko’rsatish bilan cheklanib qolganlar. Aslida esa, milliy mafkura asosida barcha ijodkorlar va musiqashunoslar mehnatiga xolisona baho berilishi kerak. Mazkur tadqiqotlarda O’zbek notasi vorisiylik rishtalari bilan bog’liq manbalarga tegishli risolalar, musiqiy bayozlar, XX asr boshlarida ma’rifatchilar yozgan “Xorazm musiqiy tarixchasi”, “O’zbek klassik musiqasi va uning tarixi” kitoblari izchil tizim sifatida tahlil etilmagan. SHashmaqomni musiqiy nav sifatida shakllanish tarixi,

uning ilmiy asoslari bilan bog'liq tayanch manbalar – musiqiy risola, bayoz va tanbur tabulaturasi haqida SHo'ro davrida rasm etilgan yuzaki qarashlarni bartaraf etishga harakat qilinmagan. “Tanbur chizig'i” nusxalaridagi musiqiy va so'z matnlarini maqomshunoslik ilmiga kengroq joriy etish ko'zda tutilmagan.